

Sirdaryo viloyatida Asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,9 barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 2,3 trln so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular 2024-yilgacha o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, joriy davrda o'sish sur'ati 179,0 % ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)


Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-mart oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 041,8 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 179,0 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
Jami	5 041,8	179,0	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	249,6	120,1	7,4	4,9
respublika budjeti	128,8	92,5	4,9	2,5
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	16,5	33,4	1,8	0,3
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
shu jumladan, mln AQSh dollarida	-	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	104,3	5,4 m.	0,7	2,1
shu jumladan, mln AQSh dollarida	8,1	5,5 m.	x	x
markazlashmagan investitsiyalar:	4 792,2	183,7	92,6	95,1
korxona mablag'lari	423,9	131,0	11,5	8,4
aholi mablag'lari	109,8	101,3	3,8	2,2
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	4 131,9	195,9	74,9	82,0
shu jumladan, mln AQSh dollarida	319,3	198,6	x	x
shundan:				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	3 020,9	2,4 m.	43,7	59,9
shu jumladan, mln AQSh dollarida	233,4	2,5 m.	x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	126,6	185,9	2,4	2,5

2025-yil yanvar-mart oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 249,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 4,9 % ga yetdi.

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

		shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Sirdaryo viloyati	5 041,8	2,5	8,4	2,2	84,1	0,3	-	2,5
<i>shaharlar</i>							-	
Guliston	265,8	11,1	30,7	8,4	49,0	0,4	-	0,4
Shirin	1 938,5	-	0,8	0,1	99,1	-	-	0,0
Yangiyyer	704,3	2,2	2,4	0,4	94,4	0,1	-	0,5
<i>tumanlar</i>							-	
Boyovut	186,6	5,2	14,5	6,0	74,0	0,1	-	0,2
Guliston	142,9	4,9	80,5	5,1	3,4	0,0	-	6,1
Mirzaobod	122,8	8,3	12,3	6,1	72,2	0,0	-	1,1
Oqoltin	115,1	0,7	5,5	3,1	89,8	0,0	-	0,9
Sardoba	490,2	1,7	8,3	1,4	82,7	0,0	-	5,9
Sayxunobod	276,2	4,9	3,3	2,7	85,6	0,2	-	3,3
Sirdaryo	440,8	4,5	20,1	6,8	52,4	0,0	-	16,2
Xovos	358,6	4,0	2,4	2,6	86,9	3,9	-	0,2

II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida elektr, gaz, bug' va havoni kondensiyalash yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 870,3 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 37,1 foizi o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024- y.	2025- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	5 041,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	307,0	8,0	6,1
tog'-kon sanoati	21,4	0,8	0,4
ishlab chiqarish sanoati	1 784,2	34,8	35,4
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	1 870,3	39,5	37,1
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	42,7	2,4	0,8
qurilish	55,6	1,9	1,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	82,1	2,4	1,6
tashish va saqlash	91,6	0,8	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	0,2	0,1
davlat boshqaruvi va mudofa	14,7	0,7	0,3
moliya va sug'urta faoliyati	4,6	0,1	0,1
boshqa turdagi xizmatlar	35,8	0,1	0,7
ta'lim	39,8	2,1	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	73,9	1,1	1,5
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	128,7	0,2	2,6
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	467,0	3,8	9,3
boshqa faoliyat turlari	16,0	1,1	0,3


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025-yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga 327,4 mln dollar (4 236,6 mlrd so'm) xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan 233,4 mln dollari (3 020,9 mlrd so'm) yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 71,3 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Sirdaryo viloyati	3 020,9	104,3	1 111,0
<i>shaharlar</i>			
Guliston	10,3	2,5	117,4
Shirin	1 921,1	-	-
Yangiyer	453,3	4,9	207,1
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	59,6	78,5	-
Guliston	-	4,8	-
Mirzaobod	88,7	-	-
Oqoltin	25,7	-	77,7
Sardoba	146,8	-	258,4
Sayxunobod	45,3	4,8	186,5
Sirdaryo	152,4	4,9	73,6
Xovos	117,7	3,9	190,3

Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, % da



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-mart oylarida jami 31,8 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda viloyat bo'yicha jami 119 ta turar-joylar ishga tushirildi, ularning 54 tasi qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, kv.m	Ulardan: qishloq joylarda kv.m
Sirdaryo viloyati	31 794	18 827
<i>shaharlar</i>		
Guliston	11 455	-
Shirin	303	-
Yangiyer	1 087	-
<i>tumanlar</i>		
Boyovut	1 307	1 307
Guliston	842	842
Mirzaobod	185	185
Oqoltin	-	-
Sardoba	866	744
Sayxunobod	886	886
Sirdaryo	13 480	13 480
Xovos	1 383	1 383

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning

asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyoq qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischi larning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Umarqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

